

“O‘ZBEK TILSHUNOSLIGI VA ADABIYOTSHUNOSLIGI TARAQQIYOTI, XALQARO HAMKORLIK MASALALARI”

mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

“LAYLI VA MAJNUN” DOSTONIDAGI MUNOJOT BOBLARNING MANBALARI VA BADIY TAHLILI

Safarova Shahlola Amin qizi

*Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat
o‘zbek tili va adabiyoti universiteti tayanch
doktoranti*

Annotatsiya: Maqolada Alisher Navoiy ijodida alohida o‘rin egallaydigan "Xamsa" dostonlaridan "Layli va Majnun" tarkibidagi munojot bobi g‘oyaviy-badiiy tahlilga tortilgan. Tahlil davomida misralarda keltirilgan fikrlarning manbalari, ya'ni Qur'oni Karim, Hadisi Sharif, tasavvuf ta'limoti bilan bog‘liq jihatlarga e'tibor qaratiladi. Doston tarkibidagi she'riy satrlar nasriy bayon qilinib, tahlilga tortiladi. Munojot bobi tahlilga tortilar ekan, o‘zbek kitobchilik tarixida maxsus an'ana (an'anaviy kirish boblar: basmala, hamd, munojot, na't) larning shakllanishi haqida ham fikr yuritiladi. Munojot bobida Alisher Navoiy Ollohning azamatlik qudratiga, ya'ni yo‘qdan bor, bordan yo‘q qiluvchi ulug‘ zot ekanligiga alohida e'tibor qaratgan. Ana shu jihatlari tahlilda inobatga olingan. Maqolada shoirning badiiy mahoratiga ham baho beriladi.

Kalit so‘zlar: munojot, doston, badiiy mahorat, talmeh, tanosub, "Xamsa", "Layli va Majnun".

Аннотация: В статье идейно-художественно анализируется диалоговая глава «Лайли и Мажнун» из эпоса «Хамса», занимающая особое место в творчестве Алишера Навои. В ходе анализа будет уделено внимание источникам мыслей, изложенных в аятах, то есть Священному Корану, хадисам Шарифа, аспектам, связанным с учением суфизма. Поэтические строки эпоса описаны в прозе и проанализированы. При анализе главы Муноджот рассматривается также формирование особых традиций (традиционных вводных глав: басмала, хамд, муноджот, на'т) в истории узбекской литературы. Особое внимание Алишер Навои в главе молитвы уделит великой силе Аллаха, т. е. Он – Великий, существующий из ничего и разрушающий все. Эти аспекты были учтены при анализе. В статье также дана оценка художественному мастерству поэта.

Ключевые слова: муноджот, эпос, художественное мастерство, тальме, пропорция, «Хамса», «Лайли и Мажнун».

Anotation: In the article, the dialogue chapter in "Layli and Majnun" from "Khamisa" epics, which occupies a special place in Alisher Navoi's work, is analyzed ideologically and artistically. During the analysis, attention will be paid to the sources of the thoughts presented in the verses, that is, the Holy Qur'an, Hadith Sharif, aspects related to the teachings of Sufism. The poetic lines of the epic are described in prose and analyzed. While analyzing the chapter of Munojot, the formation of special traditions (traditional introductory chapters: basmala, hamd, munojot, na't) in the history of Uzbek literature is also considered. Alisher Navoi paid special attention to the great power of Allah in the chapter of prayer, i.e. He is the Great One who exists from nothing and destroys everything. These aspects were taken into account in the analysis. The article also assesses the poet's artistic skills.

“O‘ZBEK TILSHUNOSLIGI VA ADABIYOTSHUNOSLIGI TARAQQIYOTI, XALQARO HAMKORLIK MASALALARI”

mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

Key words: munojot, epic, artistic skill, talmeh, proportion, "Khamisa", "Layli and Majnun".

Nazm:

*Sening sifatingda ahli idrok,
So'z so'rmadi g'ayri "moarafnok".
Bas nazmda so'z degan meningdek,
Men xud neki, yuz tuman meningdek.*

Sening (Oloh nazarda tutilmoqda) sifat (xislatlar, fazilatlar)ingni ta'rifini qilishga idrok ahli (ilmi insonlar, bilguvchilar)ning ham iqtidori ozlik qiladi. Biz seni moarafnok (seni keragicha bilmaganmiz). Nazm (she'riyat)da men seni xud (yolg'iz, birgina) e'tirof etgan emasman, men kabilar yuz tuman (o'n ming)lab topiladi. Ammo shunda ham sening ta'rifingni qilishga biz o'zlik qilurmiz. Qur'oni Karimning Yunus surasi 123-oyatida: Osmonlar va Yerning g'aybiy siri Allohga xosdir. Barcha ish Ungagina qaytarilur. Bas, Unga ibodat qiling va Unga tavakkul eting! Qilayotgan ishlaringizdan (esa) Rabbingiz g'ofil emasdir. [4:135]

Nazm:

*Har nav'ki aylasam xitobing,
Yuz oncha biyikdurur janobing,*

Har qancha xitob (gapirish) qilsam ham sen uchun ozlik qiladi. Zoti sharifing buyukdir.

255-oyati bo'lmish, Oyatal kursi quyidagichadir:

يَسْتَفْعُ الَّذِي دَا مَنْ الْأَرْضِ فِي وَمَا السَّمَاوَاتِ فِي مَا لَهُ نَوْمٌ وَلَا سِنَّةٌ تَأْخُذُهُ لَا الْقَيُْومُ الْحَيُّ هُوَ إِلَّا إِلَهٌ لَا إِلَهَ إِلَّا اللَّهُ
السَّمَاوَاتِ كُرْسِيُّهُ وَسِعَ شَاءَ بِمَا إِلَّا عِلْمِهِ مِنْ بَشِيءٍ يُحِيطُونَ وَلَا خَلْقُهُمْ وَمَا أَيْدِيهِمْ بَيْنَ مَا يَعْلَمُ بِإِذْنِهِ إِلَّا عِنْدَهُ
الْعَظِيمِ الْعَلِيِّ وَهُوَ حِفْظُهُمَا يُنُودُهُ وَلَا وَالْأَرْضِ

ya'ni: “Allohdan o'zga hech qanday iloh yo'q, faqat Uning o'zi bordir! U tirik va abadiy turuvchidir. Uni mudroq ham, uyqu ham olmaydi. Osmonlar va Yerdagi (barcha) narsalar Unikidir. (Qiyomat kuni) Uning huzurida kim ham (gunohkorlarni) Uning ruxsatisiz shafolat qila olardi? Alloh odamlarning oldilaridagi va ortlaridagi bor narsani biladi. (Odamlar) Uning ilmidan faqat (U) istagan miqdoricha o'zlashtirurlar. Uning Kursiysi osmonlar va Yerni (ham) o'z ichiga sig'dira olur. U ikkisini muhofaza etish Uni toliqtirmas. U Oliy va Buyukdir” (Baqara surasi 255-oyat. Oyatal kursi). [4:29]

Nazm:

*Zunnor belimga nafs etib chust,
Kufr ichra belimni bog'labon rust,
Har lahza ishimni charhi bebok,
Ul rishta bila etib girihnok .*

“O‘ZBEK TILSHUNOSLIGI VA ADABIYOTSHUNOSLIGI TARAQQIYOTI, XALQARO HAMKORLIK MASALALARI”

mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

Zunnor (musulmon davlatlarda yashovchi xristianlar majburan belga bog‘lab yuradigan chilvir) belimga chust (chaqqon, tez)likda bog‘lanishni istadi. Kufr (kofirlik, islomni tanimaslik) yo‘lida belimni rust (mustahkam, qattiq) bog‘ladi. Bo‘lib turgan ishlarga charhi bebok (falak beparvo). Ul rishta bilan girihnok (qiyin, chigal) etdi.

Nazm:

Ki, har qilg‘ong‘a hujjat ham tutarsen,

Bu hujjat ichra diqqat ham tutarsen.

إِنَّا نَحْنُ نُحْيِي الْمَوْتَىٰ وَنَكْتُبُ مَا قَدَّمُوا وَآثَارَهُمْ ۚ وَكُلَّ شَيْءٍ أَحْصَيْنَاهُ فِي إِمَامٍ مُّبِينٍ ﴿١٢﴾

Albatta, Biz, O‘zimiz o‘liklarni tiriltirmiz va ular taqdim qilgan narsalarni va qoldirgan asarlarni yozurmiz. Har bir narsaning hisobini ochiq-oydin imomda olib qo‘yganmiz. (Alloh taolo o‘lganlar, tirilishlari va qilgan amallari uchun javob berishlarini, xabar bermoqda.) (Yosin surasi 12-oyat) [4:294]

Nazm:

Har necha emas manga bu oson,

Lekin sanga bordur asru oson.

Boq dardu malolatimg-a, yorab,

Rahm ayla bu holatimg‘a, yorab,

Bu azoblardan xalos bo‘lish, men uchun oson emas. Ammo sen uchun juda osondir. Yo rab, dardu malomatimga boqib, mening holatimga rahm ayla.

Nazm:

Lutf ayla o‘zum sori yo‘lum chek,

Chekting chu yo‘lum tutub qo‘lum chek.

Tortib bu mag‘oqdin chiqorg‘il,

G‘arqobi halokdin chiqorg‘il.

Chun olima qo‘ymading yovuz yo‘l,

Sayr ichra nasibim ayla tuz no‘l.

Marhamt ko‘rsatib, meni o‘zing tomonga yo‘lla. Bu mag‘oqdan (chuqurlik), halokat girdobidan tortib chiqorgin. Oldinga yovuz yo‘l qo‘yma, tuz (to‘g‘ri, rost)likni nasibim ayla. «Oralaringizdan yaxshilikka (Islomga) da‘vat qiladigan, ibodat-itoatga buyuradigan va isyon-gunohdan qaytaradigan bir jamoat bo‘lsin. Ana o‘shalar najot topguvchilardir» (Oli Imron surasi, 104-oyat). [4:42]

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriy “Al-jomi‘ as-sahih” 1-jild.:T.2007
2. Al Azkor. Yahyo ibn Sharaf an-Navaviy. Movarounnahr. Toshkent. 2003
3. Nurboy Jabborov “Alisher Navoiy ijodining islomiy-ma‘rifiy asoslari” Alisher Navoiy adabiy va ilmiy merosini o‘rganish masalalari / – Toshkent. – 2023

“O‘ZBEK TILSHUNOSLIGI VA ADABIYOTSHUNOSLIGI TARAQQIYOTI, XALQARO HAMKORLIK MASALALARI”

mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

4. Qur’oni Karim.Tarjima va tavsir muallifi Sayx Abdullaziz Mansur. Toshkent:
Toshkent islom universiteti nashriyot matbaa birlashmasi,
5. Islom.ziyouz.com